| ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ХОЗЯЙСТВЕННОГО МЕХАНИЗМА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ .....                                                                        | 692 |
| <b>Воронин Сергей Александрович, Азимова Феруза Маликовна</b>                                                                                                    |     |
| ENERGETIKA LOYIHALARINI RAQAMLASHTIRISHDA TO'SIQLAR VA IMKONIYATLAR .....                                                                                        | 700 |
| <b>Tilakov Ismoiljon Usmonovich</b>                                                                                                                              |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....                                                                    | 706 |
| <b>O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li</b>                                                                                                                         |     |
| O'ZBEKISTONDA RAQAMLI BOZORLARNI MONOPOLIYAGA QARSHI TARTIBGA SOLISH MEKANIZMLARI VA TAKOMLLASHTIRISH TAKLIFLARI.....                                            | 710 |
| <b>Mingboev Asqar Qandaharovich</b>                                                                                                                              |     |
| JAHON SEMENT SANOATIDAGI TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....                                                                | 717 |
| <b>Abdujabbarov Alisher Abdullayevich</b>                                                                                                                        |     |
| KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....                                                                                      | 722 |
| <b>Mufitillayeva Safiya Qodir qizi</b>                                                                                                                           |     |
| KORXONALAR FAOLIYATINI BAHOLASHDA STATISTIK AXBOROT TIZIMINING O'RNI .....                                                                                       | 728 |
| <b>Musurmonova Mahbuba Omonovna</b>                                                                                                                              |     |
| INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ULARNING AGRAR SOHAGA TA'SIRI.....                                                                                                   | 732 |
| <b>Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li</b>                                                                                                                           |     |
| DIRECTIONS FOR EFFECTIVE ORGANIZATION OF STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF COSTS .....                                                                          | 736 |
| <b>Pardaeva Shakhnoza Abdinabiyevna</b>                                                                                                                          |     |
| БОРЬБА С ТЕНЕВОЙ ЭКОНОМИКОЙ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....                                                                      | 740 |
| <b>Арзиев Шерзод</b>                                                                                                                                             |     |
| REKREATSION TURIZM OBYEKTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGI: YALTA VA KISLOVODSK SANATORIYALARI MISOLIDA.....                                                       | 746 |
| <b>Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich</b>                                                                                                                        |     |



|                                                                                                                                      |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| KORXONA SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA STRATEGIK REJALASHTIRISH<br>MEZONLARI VA OMILLARINING O'RNI .....                               | 752 |
| <b>Ubaydullayev Lutfulla Xabibullayevich</b>                                                                                         |     |
| ANALYSIS OF INTERACTIVE PLATFORMS THAT DEVELOP MOTIVATION .....                                                                      | 757 |
| <b>Maksuda Mukhammadovna Jurayeva, Zarnigor To'liqinovna Sattorova</b>                                                               |     |
| O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK VA KIYIM SANOATINING MARKETING TAHLILI .....                                                             | 761 |
| <b>Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna</b>                                                                                                |     |
| АНАЛИЗ РЕЙТИНГОВ СТРАН ПО ПОКАЗАТЕЛЯМ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ.....                                                                        | 768 |
| <b>Хожиева Назокат Давронбековна</b>                                                                                                 |     |
| PILLAGA DASTLABKI ISHLOV BERISH VA SAQLASH TEXNOLOGIK JARAYONLARINING<br>XOM IPAK SIFATIGA TA'SIRI .....                             | 773 |
| <b>Qodirov Ziyodulla Abdumuxtarovich, Xakimov Mirolimjon Murodiljonovich</b>                                                         |     |
| BUDJETLASHTIRISHDA SAMARADORLIK MEZONLARINI ANIQLASH .....                                                                           | 778 |
| <b>Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich</b>                                                                                             |     |
| TIJORAT BANKLARI KREDIT SIYOSATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI ISHLAB<br>CHIQAIRISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....           | 783 |
| <b>Abduxomidov Ikromjon Maxamadin o'g'li</b>                                                                                         |     |
| YO'LLARDAGI MUZLAMALARNI ERITISHDA QO'LLANILADIGAN VOSITALARNING<br>ZARARI VA UNI KAMAYTIRISH BO'YICHA TAKLIFLAR .....               | 790 |
| <b>Erkabayev Furkat Ilyasovich, Sattorov Farrux Quchqar o'g'li, Aminov Hamza Husanovich</b>                                          |     |
| DAVLAT AUDITI TIZIMINING YANGI RIVOJLANISH BOSQICHI: KUCHAYTIRILGAN<br>NAZORAT VA HISOBDOIRLIK, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR.....          | 797 |
| <b>Himmatov Abdisamat Xalilovich</b>                                                                                                 |     |
| INVESTITSIYA KO'CHMAS MULK HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY<br>VA AMALIY YONDASHUVLAR .....                                       | 803 |
| <b>Maxmudov Jamshed Ashrafovich</b>                                                                                                  |     |
| TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARGA VALYUTA OPERATSIYALARINI<br>KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....                              | 806 |
| <b>Umarova Lola Erkinovna</b>                                                                                                        |     |
| "DIREKT-KOSTING" TIZIMI: MAZMUN, MAQSAD VA AMALIYOTDA QO'LLANILISHI.....                                                             | 812 |
| <b>Djumanov Saitmurod Alimbekovich</b>                                                                                               |     |
| TASHABBUSLI BUDJET JARAYONLARIDA "MENING YO'LIM" LOYIHASINING<br>INSTITUTSIONAL RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....                         | 817 |
| <b>Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li</b>                                                                                           |     |
| TURIZM SOHASINI KLASSTER USULDA RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ<br>TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA IJODIY FOYDALANISH IMKONIYATLARI ..... | 823 |
| <b>Navruz-zoda Zebiniso Baxtiyorovna</b>                                                                                             |     |
| BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA YASHIL OBLIGATSIYALARNING<br>IQTISODIY SAMARADORLIGI.....                               | 827 |
| <b>Allayarov Suxrob Rustamovich</b>                                                                                                  |     |
| O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA AKTLARINI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL VA HUQUQIY<br>ASOSLARI.....                                          | 831 |
| <b>Muxammadov Nodir Karimovich</b>                                                                                                   |     |



# O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA AKTLARINI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL VA HUQUQIY ASOSLARI

**Muxammadov Nodir Karimovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchi i.f.f.d. (PhD),

E-mail: [nodir.muhammadov@gmail.com](mailto:nodir.muhammadov@gmail.com)

ORCID ID: 0009-0008-2029-6968

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston soliq tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etishning konseptual asoslari, huquqiy-me'yoriy bazasi, rivojlanish bosqichlari va ularning soliq ma'murchiligi samaradorligiga ta'siri ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Mamlakatda so'nggi yillarda soliq tizimini modernizatsiya qilish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va iqtisodiyotni soyalashdan chiqarish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar AKTning soliq boshqaruvidagi o'rini yanada mustahkamladi. Shuningdek, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar soliq jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha konseptual yondashuvning shakllanishini belgilab berdi. Maqolada elektron hisobvaraqa-faktura, onlayn nazorat-kassa mashinalari, markirovkalash tizimi, raqamli identifikatsiya, ma'lumotlar almashinuvi platformalari, tovar-transport yuk xatlarini raqamlashtirish kabi zamonaviy AKT yechimlarining joriy etilishi va ularni tartibga soluvchi huquqiy asoslar o'rganiladi. Shu bilan birga AKTlarni tatbiq etishda yuzaga kelayotgan muammolar — texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, ma'lumotlar xavfsizligi, idoralararo integratsiya sustligi, biznes-subyektlarining raqamli savodxonlik darajasi kabi omillar ham chuqur tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** soliq tizimi, raqamlashtirish, soliq ma'murchiligi, soliqlarni undirish, metodologik muammolar, raqamli texnologiyalar, axborot tizimlari integratsiyasi, sun'iy intellekt, blokcheyn, ma'lumotlar xavfsizligi, shaffoflik, soliq tushumlari samaradorligi.

**Abstract.** This article analyzes from a scientific point of view the conceptual foundations, legal and regulatory framework, stages of development of the introduction of information and communication technologies (ICT) in the tax system of Uzbekistan and their impact on the efficiency of tax administration. In recent years, the regulatory and legal documents adopted in the country on the modernization of the tax system, digitization of public services, simplification of administrative procedures and de-shadowing of the economy have further strengthened the position of ICT in tax administration. Also, Presidential decrees, resolutions of the Cabinet of Ministers, amendments and additions to the Tax Code have determined the formation of a conceptual approach to the digitization of tax processes. The article studies the introduction of modern ICT solutions such as electronic invoices, online cash registers, marking systems, digital identification, data exchange platforms, digitization of goods and transport consignment notes, and the legal framework regulating them. At the same time, the problems arising in the implementation of ICTs - such factors as insufficient technical infrastructure, data security, weak interdepartmental integration, and the level of digital literacy of business entities - are also analyzed in depth.

**Keywords:** tax system, digitalization, tax administration, tax collection, methodological problems, digital technologies, information systems integration, artificial intelligence, blockchain, data security, transparency, tax revenue efficiency.

**Аннотация.** В данной статье с научной точки зрения анализируются концептуальные основы, нормативно-правовая база, этапы развития внедрения информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в налоговую систему Узбекистана и их влияние на эффективность налогового администрирования. Принятые в последние годы в стране нормативно-правовые документы по модернизации налоговой системы, цифровизации государственных услуг, упрощению административных процедур и детенизации экономики еще больше укрепили позиции ИКТ в налоговом администрировании. Также указы Президента, постановления Кабинета Министров, изменения и дополнения в Налоговый кодекс определили формирование концептуального подхода к цифровизации налоговых процессов. В статье исследуется внедрение современных ИКТ-решений, таких как электронные счета-фактуры, онлайн-кассы, системы маркировки, цифровая идентификация, платформы обмена данными, оцифровка товарно-транспортных накладных, и нормативно-правовая база их регулирования. При этом подробно анализируются проблемы, возникающие при внедрении ИКТ, такие как недостаточная техническая инфраструктура, безопасность данных, слабая межведомственная интеграция и уровень цифровой грамотности субъектов хозяйствования.

**Ключевые слова:** налоговая система, цифровизация, налоговое администрирование, сбор налогов, методологические проблемы, цифровые технологии, интеграция информационных систем, искусственный интеллект, блокчейн, безопасность данных, прозрачность, эффективность налоговых поступлений.

## KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida soliq tizimini modernizatsiya qilish, soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish va davlat boshqaruvi jarayonlarida raqamlashtirishni chuqurlashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab kelinmoqda. Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida soliq tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) keng joriy etish davlatning fiskal siyosatini yanada takomillashtirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda ma'muriy xarajatlarni kamaytirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida belgilangan vazifalar soliq tizimini raqamlashtirishning konseptual yo'nalishlarini belgilab berdi. Xususan, elektron hisobvara-q-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari, markirovkalangan tovarlarni raqamli nazorat qilish tizimi, soliq ma'lumotlari almashuvining avtomatlashtirilgan platformalari, shuningdek tovar-transport yuk xatlari va boshqa xo'jalik hujjatlarini raqamlashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlar soliq organlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni soddalashtirib, hisob-kitob shaffofligini ta'minlamoqda. Soliq sohasida AKTlarni joriy etishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali izchil takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, elektron hujjat almashinuvi, soliq hisobotlarining raqamli shaklda taqdim etilishi, soliq to'lovchilarning shaxsiy kabinetlari, elektron ariza va murojaatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarini belgilovchi normativ baza shakllantirilgan. Bu esa soliq tizimining konseptual rivojlanishida AKTning ustuvor o'rin tutishini ko'rsatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi soliq ma'muriyatshiligidagi joriy etilgan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari mavzusiga oid qisqacha adabiyotlar sharhini keltiramiz.

Soliq majburiyati – jismoniy shaxs, korporatsiya yoki boshqa yuridik shaxsning davlat oldidagi soliq qarzining umumiy summasidir. Daromad solig'i, savdo solig'i va kapital daromad solig'i soliq majburiyatlarining barcha shakllaridir (Jonson, 2022) [1].

Soliq majburiyatining ta'rifi jismoniy yoki yuridik shaxsning davlatga soliq bo'yicha qarzi bo'lgan pul yoki qarz miqdoridir (Jozepson, 2022). Demak, anglashilmoqdaki soliq majburiyatlari soliq to'lashdan bo'yin tovlashga qarab ketmoqda. Ya'ni ushbu tadqiqot doirasida soliq to'lashdan bo'yin tovlash tushunchasini iqtisodiy mohiyatini ochishga harakat qilamiz. Soliq to'lashdan bo'yin tovlash deganda jismoniy yoki yuridik shaxslarning soliq majburiyatlarini qonunga xilof ravishda kamaytirish maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli faoliyat tushuniladi. Soliq majburiyatlari soliq tizimlarining standart va huquqiy jihati bo'lib, soliq to'lashdan bo'yin tovlash firibgarlik yo'li bilan ushbu majburiyatlardan qochish yoki kamaytirishga qaratilgan jinoyi harakatdir[2].

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash tarix davomida hamma joyda keng tarqalgan. "Soliq to'lashdan bo'yin tovlash" atamasi soliqlarning adolatli ulushini to'lashni istamaydiganlar tomonidan keng ko'lamli faoliyatni o'z ichiga oladi (Ovusu va boshq., 2019). Daromadni kamaytirib ko'rsatish, chegirmalarni ortiqsha ko'rsatish va moliyaviy hujjatlarni manipulyatsiya qilish soliq to'lashdan bo'yin tovlash strategiyasining misolidir (Ozili, 2020). Shunga qaramay soliq to'lashdan bo'yin tovlash natijasida yo'qotilgan daromad miqdori har qanday mamlakatda katta bo'lishi mumkin. [3].

Ko'pgina soliq to'lashdan bo'yin tovlash bo'yicha tadqiqotlar individual xatti-harakatlarni aniq kontekstda ko'rib chiqadi (Alm va boshq., 2019). Axloqiy, ishonsh, munosabat, idrok, niyat, xabardorlik, madaniyat, dindorlik, bilim va ta'lim kabi individual omillarga bog'liq. Shaxsiy daromad solig'i bu xatti-harakatlar ko'rib shiqiladigan eng keng tarqalgan ob'ektiv bo'lib, soliq to'lashdan bo'yin tovlash bo'yicha eng nazariy va empirik ishlar shaxsiy daromad solig'iga qaratilgan (Efeeloo va Dik, 2018). Jismoniy shaxslar o'z daromadlarini kam hisobot berish, chegirmalarni, imtiyozlar yoki kreditlarni ortiqcha ko'rsatish, soliq deklarasiyasini o'z vaqtida topshirishga e'tibor bermaslik yoki hatto soliq to'lamaslik uchun ayirboshlashda qatnashish orqali daromad solig'ini to'lashdan qochishlari mumkin. Boshqa tomondan bunday xatti-harakatlar, albatta, turli soliqlarda olinishi mumkin. Ayni paytda, firmalar, masalan, jismoniy shaxslar shaxsiy daromad solig'ida bo'lgani kabi daromadlarni kam hisobot berishi, chegirmalarni bo'rttirib ko'rsatishi yoki yuridik shaxslarning daromad solig'i bo'yicha soliq deklarasiyasini taqdim etmasligi mumkin[4].

Adabiyotda iqtisod bilan bog'liq omillar soliq stavkasi, moliyaviy cheklovlar, daromad darajasi, soliq yuki, korrupsiya, iqtisodiy tuzilma, audit, jarima va ishsizlikdir. Rishardson (2016) soliq to'lashdan bo'yin tovlashda iqtisodiy omillarga qaraganda iqtisodiy bo'lmagan omillar ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Keyinshalik korrupsiya va soliq to'lashdan bo'yin tovlash keng tarqalgan muammolar sifatida tavsiflanadi. Korrupsiya – hokimiyat va vakolatli shaxs yoki korporatsiya tomonidan noqonuniy afzalliklarga ega bo'lish yoki hokimiyatni shaxsiy



manfaat uchun suiiste'mol qilish maqsadida amalga oshiriladigan insofsiz yoki jinoiy huquqbuzarlikdir (Khelif va Amara, 2019). Nihoyat, ishsizlik ma'lum yoshdan oshgan, haq to'lanadigan ishda yoki mustaqil ish bilan band bo'lmagan, lekin ayni paytda ish qidirayotganlar sifatida aniqlanadi (Tabandeh va Tamadonnejad, 2015). Tadqiqotlarga ko'ra, ishsizlik yashirin iqtisodiyotning asosiy manbai hisoblanadi. [5].

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash bo'yicha eng so'nggi o'rganilganlar tomonidan yuqorida qayd etilgan iqtisodiy va noiqtisodiy omillardan tashqari boshqa omillar ham qo'llaniladi. Adabiyotlarni ko'rib chiqish davlat xizmatlarini raqamlashtirish, korporativ ijtimoiy mas'uliyat va ma'lumot tarqatishning ta'siri kabi ba'zi o'zgaruvchilarni taqdim etadi. Birinchidan, butun dunyo bo'ylab hukumatlar so'nggi o'n yilliklarda internet texnologiyasi davlat xizmatlarini soddalashtirishi va ularning samaradorligini oshirishi mumkinligini tushunib, o'z aholisi bilan aloqa qilish uchun internetdan foydalanishda xususiy sektorga ergashdilar (Uyar va boshq., 2021). (Montenegro, 2021). Nihoyat, hushtakboz xususiy, davlat yoki davlat tashkiloti doirasida noqonuniy, axloqsiz, noqonuniy, xavfli, firibgarlik yoki davlat mablag'larini suiiste'mol qiluvshi bilim yoki harakatni oshkor qiladigan kishidir. Hushtakbozlik tizimlarini joriy qilish auditdan o'tish ehtimoliga noaniqlik qo'shish orqali aniqlash imkoniyatini oshiradi (Masslet va boshq., 2019). [6].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi va keng qo'llanilishi ularga asosiy milliy infratuzilmalarning tubdan qaramligini shakllantirishga olib keldi. Bu, o'z navbatida, mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha tarmoqlari va hayot sohalarida zamonaviy AKTdan foydalanishni kelgusida joriy etish va kengaytirish zaruratini tug'dirdi. Aynan shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni 2013-yil 27-iyunda qabul qilingan edi. Farmonda ushbu yo'nalishda bir qator amaliy chora-tadbirlar belgilab olindi va mamlakatimizda telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmalarini rivojlantirish dasturi hamda «elektron hukumat»ning samarali ishlashini ta'minlaydigan axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini yaratish loyihalarini ro'yxati tasdiqlandi.

So'nggi yigirma yilda soliq ma'murchiligi jarayoniga AKTni izchil joriy etish davlat soliq qo'mitasining soliq to'lovchilar va soliq solinadigan ob'ektlar to'g'risida to'plangan ishonchli ma'lumotlarni tizimlashtirish, ushbu ma'lumotlarning qayta ishlanishi va ularning ishonchli saqlanishini ta'minlashga qaratilgan faoliyati izchil olib borayotgan eng muhim tadbirlaridan biridir. Ushbu faoliyatning me'yoriy-huquqiy asosini qator muhim hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30-oktabr 2012-yildagi «O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati axborot-kommunikatsiya tizimi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni tashkil etdi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish har qanday davlat taraqqiyotining zaruriy shartidir. Demokratik islohotlar va bozor iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lidan borayotgan O'zbekiston ham bundan mustasno emas. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon davlat moliyasini boshqarishning texnologik jihatdan qoloq, samarasiz tizimiga, shu jumladan, eskirgan faoliyat tamoyillari asosida qurilgan soliq tizimiga ega bo'ldi. 90 yillar boshida milliy ma'lumotlar uzatish tarmoqlarining deyarli to'liq bo'lmaganligi tufayli soliq mablag'larini qabul qilish va ularni nazorat qilish to'liq qog'oz pul hisob-kitob hujjatlari asosida amalga oshirildi.

Soliq tizimini isloh qilish ma'lumotlarni qayta ishlash uchun yagona kompyuter tarmog'ini shakllantirishdan boshlangani ajablanarli emas. 1993-yil 3-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi soliq organlarida ma'lumotlarni qayta ishlashning yagona kompyuter tizimini yaratish to'g'risida» gi 388-sonli qarori qabul qilindi. 182 ta kompyuter mavjud edi, soliq inspeksiyalarining faqat bir qismi bunday uskunalar bilan ta'minlangan edi. Shu bilan birgalikda, protsessorlar past ko'rsatkichlarga ega edi va juda sekin ishlardi. Kompyuterlar asosan yuridik shaxslarning shaxsiy kartalarini saqlaydigan tizim ma'murlari va inspektorlari ixtiyorida edi. Deyarli barcha ishlar qog'oz hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Biroq, 1995-yilga kelib soliq xizmatining moddiy-texnik bazasi ancha mustahkamlanib, avvalgilarga qaraganda ancha ilgari ketgan protsessorlar asosidagi 2 ming 127 dona kompyuter texnikasi bilan ta'minlangan edi. 90-yillarning ikkinchi yarmi soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlarini (STIR), soliq to'lovchilar va soliq tushumlarini avtomatlashtirilgan hisobga olish uchun dasturiy ta'minotni tayinlash tizimini ishlab chiqish bilan boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 14-sentyabrdagi 359-sonli «O'zbekiston Respublikasi soliq organlari xodimlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash

va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish to'g'risida qaroriga muvofiq tashkil etilgan davlat soliq qo'mitasining yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazini tashkil etish AKTni mamlakat soliq xizmati faoliyatiga joriy etish jarayonlarini jadallashtirishning muhim bosqichi bo'ldi. Markazning vazifalari qatoriga O'zbekiston axborot tizimida ma'lumotlar uzatish milliy tarmog'ining quyi tizimini shakllantirish maqsadida soliq axborotlari bilan ishlash, davlat muassasalari va banklarning avtomatlashtirilgan axborot tizimlari bilan integratsiya qilish bo'yicha ixtisoslashtirilgan dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish ham kiradi.

1997-yildan boshlab mamlakatda soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini berish va qo'llash tizimi qo'llanila boshlandi. Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 7-yanvardagi "soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlarini qo'llash ko'lamini kengaytirish to'g'risida" gi Qarorining qabul qilinishi soliq qonunchiligini amalga oshirish mexanizmini yakunlash imkonini berdi. Shu paytdan boshlab STIR jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan pul hisob-kitob hujjatlarida ko'rsatilishi shart qilib belgilandi. Shu bilan bir qatorda davlat soliq xizmatining texnik jihozlari ham takomillashtirila boshlandi. Shunday qilib, 1997-yilda hisoblash texnikasi soni 3908 taga yetdi. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi va kompyuter texnikasining tez eskirishi uni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan chora-tadbirlar zarurligini keltirib chiqardi. Bu vazifa u yoki bu darajada barcha davlat tashkilotlari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi oldiga ham qo'yiladi. Axborot tizimlarining rivojlanishi va qayta ishlangan elektron hujjatlar sonining ko'payishi sharoitida davlat soliq xizmati organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni hal qilish maqsadida 2005-yilda soliq xodimlarini zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta'minlashni tizimli ravishda oshirish boshlandi.

Ushbu jarayonlarning barchasi tezkor ma'lumotlar almashinuviga asoslangan, shuning uchun davlat soliq xizmati axborot tizimlarining xavfsizligini ta'minlash ustuvor vazifalardan biridir. Soliq organlarining axborot resurslariga xizmat ko'rsatishining muhim prinsipi axborot xavfsizligi hisoblanadi. Axborot xavfsizligi tasdiqlangan "Soliq organlarining axborot xavfsizligi konsepsiyasi" va ishlab chiqilayotgan axborot xavfsizligi siyosatiga muvofiq axborotni himoya qilishning tashkiliy-texnik tadbirlari va dasturiy-apparat vositalari to'plami bilan ta'minlanadi.

Soliq organlari ishining samaradorligi bir necha barobar oshdi, soliq yig'ish va majburiy to'lovlar, soliq qarzlarni undirish, soliq qonunchiligi buzilishining oldini olishga javobgarlik darajasi oshdi. Davlat soliq xizmatining barcha darajadagi tarkibiy bo'linmalari, shuningdek, tegishli vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan axborot almashinuvi sezilarli darajada tezlashdi. «Avtomatlashtirilgan hujjat ijrosini nazorat qilish tizimi», «Ichki hujjatlarining elektron axborot tizimi», «Kadrlar hisobi bazasi», «Kompyuter texnikasi, bosma qurilmalar va uning periferiy qurilmalarini hisobga olish», «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini masofadan boshqarish tizimi» kabi avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish va boshqalar davlat soliq xizmati ichki faoliyatining ko'plab yo'nalishlarini avtomatlashtirishga ruxsat berildi. Shuningdek, biznesni tahlil qilish imkonini beruvchi 10 ta dasturiy mahsulot joriy etildi va bu bilan soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirildi. Moddiy va moliyaviy resurslarni tejashning erishilgan samarasi muhim omil hisoblanadi. Xususan, dasturiy mahsulotlarning joriy etilishi va IP-telefoniyadan foydalanish tufayli 1 mlrd.so'mdan ortiq miqdorda va yiliga 70-80 ming inson/soat moliyaviy tejashga erishish mumkin bo'ldi.

Soliq ma'murchiligini avtomatlashtirish soliqqa tortilish bazasini kengaytirishga yordam beradi. Soliq majburiyatlarining bajarilishini avtomatlashtirilgan holda hisobga olish va nazorat qilish byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga qo'shimcha to'lovlar tushumini ta'minladi.

Davlat soliq qo'mitasining axborot-resurs bazasini izchil rivojlantirish va modernizatsiya qilish natijasida ulkan hajmdagi ma'lumotlarga ega bo'lgan yagona integratsiyalashgan tizim shakllantirildi. Soliq organlarining «soliq va moliyaviy hisobotlar reestri», «soliq deklaratsiyalari reestri», «soliq to'lovchilar - yuridik shaxslarning yagona reestri», «soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalari reestri» kabi ma'lumotlar bazalari davlat axborot resurslari maqomini oldi va tegishli sertifikatlar berildi.

Kiruvchi ma'lumotlar hajmining doimiy o'sib borishi, axborotni tezkor qayta ishlash, saqlash, foydalanish va xavfsizligini ta'minlash zarurati soliq xizmatini yana bir bor texnik jihatdan modernizatsiya qilishni taqozo etdi.

2011-yildan boshlab investitsiya dasturi doirasida ma'lumotlarni qayta ishlash markazi bazasida O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining yagona axborot-resurs ma'lumotlar bazasini shakllantirish boshlandi. Shu bilan birga, ko'plab ilg'or mamlakatlar - Fransiya, Yaponiya, Malayziya, Koreya Respublikasi, Singapur tajribasi o'rganildi va hisobga olindi.

Vazirlar Mahkamasining «davlat soliq xizmati tomonidan soliq to'lovchilarning axborot xizmatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi 125- sonli 2 may 2011-yildagi qarori qabul qilinishi bilan davlat soliq qo'mitasi tomonidan soliq to'lovchilarning axborot xizmati jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish maqsadida xizmat ko'rsatish, tadbirkorlik sub'ektlarining soliq majburiyatlari to'g'risida xabardorligini oshirish belgilandi va davlat soliq xizmati organlari ma'lumotlari yagona ma'lumotlar bazasini yaratish jarayoni boshlanishida quyidagilarni:

- axborot oqimlarini optimallashtirish, soliqqa tortish va soliq ma'murchiligi masalalari bilan bog'liq axborot almashinuvini jadallashtirish va uni qayta ishlash;



- soliqqa tortish va soliq ma'murchiligi masalalari bilan bog'liq axborotlarni markazlashtirilgan holda saqlash, shuningdek davlat soliq xizmati organlarining axborot tizimlari xavfsizligini yaxshilash;

- soliq to'lovchilarga interaktiv xizmatlarning keng spektrini taqdim etish, shu jumladan ularga hisoblangan va to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summaları, moliyaviy sanksiyalar va jarimalar, shuningdek ortiqcha to'lov miqdori va real vaqt rejimida soliq qarzi holati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini taqdim etish;

- soliq imtiyozlari va preferensiyalardan foydalangan holda soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish kabi choralarini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30-oktyabr 2012-yildagi Farmonining qabul qilinishi PQ-1843 sonli «O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati axborot-kommunikatsiya tizimi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori bu jarayonda yangi bosqichni boshlab berdi. Oxir-oqibat, ma'lumotlar bilan ishlash yuqori darajaga ko'tarilishi va yanada kengroq ko'lamga ega bo'lishi kerak. Zero, davlat soliq qo'mitasining Bosh axborot-tahlil boshqarmasi zimmasiga yuklatilgan vazifalar qatoriga davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning strategik yo'nalishi bo'lgan byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlarni tahlil qilish va prognoz qilish kiradi.

Butun jarayonning dastlabki bosqichi hududiy davlat soliq xizmati organlarining axborot bazalarini Davlat soliq qo'mitasining Markaziy bazasiga integratsiyasini qamrab oldi.

Ikkinchi bosqichda vazirliklar va idoralarning soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelishi (tugatilishi) to'g'risidagi axborot bazalari Davlat soliq qo'mitasining ma'lumotlar bazasiga kiritiladi. Farmonga muvofiq, tegishli davlat yoki boshqa organlar yendi aniq belgilangan xarakterdagi ma'lumotlarni DSQ ga uzatishlari shart. Yagona integratsiyalashgan axborot-resurs bazasi barcha darajadagi soliq organlarining apparat, dasturiy, texnik va telekommunikatsiya tizimlarining yagona majmuasidan iborat bo'ladi. Katta hajmdagi axborotni tezkor qayta ishlash, uning yaxlitligini va axborot xavfsizligining yangi darajasini ta'minlash - ushbu vazifalarni ushbu tizim yordamida hal etish soliq to'lovchilar uchun elektron xizmatlar doirasini kengaytiradi.

Hozirgi kunda soliq xizmati tomonidan 2024–2025-yillarda O'zbekiston soliq tizimida AKT asosida amalga oshirilayotgan eng yangi 5 ta loyiha

1. "Tovar-transport yuk xatlari" (TTYX)ni To'liq raqamlashtirish loyihasi (2024—2025). 2024-yildan tijorat yuk tashuvlarida qog'oz yuk xati o'rniga elektron TTYaH (e-TTYaH) joriy qilindi. Elektron yuk xati soliq, bojxona, mahsulot harakati, yo'l nazorati tizimlari bilan integratsiya qilinadi. Asosiy maqsadi:

tovar harakatini real vaqtda kuzatish;

yashirin aylanmalarni kamaytirish;

QQS bo'yicha zanjirni to'liq nazorat qilish. Bu loyiha soliqlardan buyin tovlashni 30–40% kamaytirish potensialiga ega. "Soliq Identifikatsiya Platformasi" – yagona identifikatsiya tizimi (2024). Soliq to'lovchilarni aniqlashning yangi raqamli mexanizmi joriy qilindi: biometrik identifikatsiya, QR-profil, elektron ID. Soliq to'lovchi barcha xizmatlardan bitta ID orqali foydalanadi. Bu tizim:

firibgarlikni kamaytiradi;

"soya iqtisodiyoti"ga qarshi kurashni kuchaytiradi;

har bir korxonaning real iqtisodiy faoliyatini aniq tasniflaydi.

"E-Hisobvara-faktura 2.0" (EHF yangi avlod) – Big Data & AI asosida (2024–2025). Eski EHF tizimi yangilanib, 2024-yildan boshlab:

avtomatik risk tahlili,

sun'iy intellekt asosida shubhali tranzaksiyalarni aniqlash,

avtomatik QQS hisob-kitobi

kabi funksiyalar qo'shilyapti.

EHF 2.0 imkoniyatlari:

sun'iy intellekt shubhali zanjirlarni aniqlaydi;

"bir kunlik firmalar"ni avtomatik filtrlaydi;

soliq tekshiruvlarini 60% qisqartiradi.

"Online KKM 3.0" – to'lovlarni real vaqt monitoring tizimi (2024–2025). Online KKMLar yangilanib, real vaqt public API orqali barcha tranzaksiyalarni banklar va soliq organlari ko'ra oladigan bo'ldi. Tizimga mobil KKM, bulutli KKM, QR-KKM, POS-terminal integratsiyasi qo'shildi.

2025-yilda barcha xizmat ko'rsatish sohalari majburiy ravishda Online KKMga o'tkaziladi. "Soliq-biznes raqamli integratsiyasi" – ERP, 1C, SAP, ODOO bilan integratsiya (2024–2025). Yirik va o'rta korxonalar uchun yangi API platformasi ishga tushirilgan. Endilikda korxonalar EHF, TTYx, KKM, aylanma hisoboti, QQS hisobi kabi ma'lumotlarni o'z buxgalteriya dasturidan turib avtomat ravishda yuborishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda davlat soliq qo'mitasining asosiy strategik vazifasi soliq xizmatining fiskal organdan xizmatga yo'naltirilgan agentlikka o'tishi bo'lib, u davlat nomidan soliq to'lovchilar bilan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali soliq to'lash bo'yicha konstitutsiyaviy burchini bajarish jarayonida ishonchli munosabatlarni shakllantiradi. Zamon talablariga muvofiq barcha davlat xizmatlarini elektron formatga o'tkazish, elektron davlat xizmatlari turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlariga boshqa axborot-maslahat xizmatlarini ko'rsatish soliq organlarining ustuvor faoliyatidir.

Takliflar:

1. Soliq, bojxona, bank, markirovka, elektron hisob-faktura (EHF) va monitoring platformalarini yagona raqamli ekotizimga birlashtirish. Har bir davlat organi uchun yagona API va ma'lumotlar almashinuvi protokollarini ishlab chiqish. Real vaqt rejimida ma'lumot uzatish bo'yicha xalqaro tajribaga mos milliy standart yaratish.

2. Zamonaviy analitika va sun'iy intellektdan keng foydalanish. Soliq xavf-xatarlarini aniqlashda AI algoritmlarini joriy etish (kontrafakt, yashirin aylanma, noto'g'ri deklaratsiya). Soliq ma'lumotlarini tahlil qiluvchi big data markazlarini tashkil etish. Raqamli markirovka ma'lumotlaridan foydalanib, ta'minot zanjiri bo'yicha avtomatik monitoring tizimini yaratish.

3. Raqamlashtirish xarajatlarini kamaytirish. Kichik biznes uchun markirovka uskunolari, skanerlar va dasturiy ta'minotni subsidiyalash. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni jalb qilgan holda arzon texnik yechimlar yaratish. Raqamli xizmatlar uchun litsenziya va texnik xizmat xarajatlarini kamaytirish.

4. Soliq jarayonlarini soddalashtiruvchi platformalarni rivojlantirish. Soliq hisobotlari, markirovka, EHF va ro'yxatdan o'tish jarayonlarini "bir darcha – bir ilova" tamoyili asosida birlashtirish. Mobil ilovalar orqali soliq to'lovchi uchun qulay interfeyslar yaratish. Qiyin jarayonlarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish va foydalanuvchi xatolarini minimallashtirish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 25 - dekabrda O'RQ-136-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
2. Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz).
3. Efeelloo N. & Disk N. (2018). An Empirical Review of the Determinants of Tax Evasion in Nigeria: Emphasis on the Informal Sector Operators in Port Harsourt Metropolis. *Journal of Assounting and Finansial Management*, 4(3), 1–10. <https://d1wqtxts1xzle7.sloudfront.net/63209917>
4. 3. Johnson Janet Berry (2022) Tax Liability: Definition, Salsulation, and Example. The investopedia team. Ostober 26, <https://www.investopedia.com/terms/t/taxliability.asp>.
5. 4. Josephson Amelia (2022) The Ultimate Guide to Tax Liability. November 16,. <https://smartasset.com/taxes/tax-liability>.
6. 5. Masslet D., Montmarquette S. & Viennot-Briot N. (2019). San whistleblower programs reduse tax evasion? Experimental evidence. *Journal of Behavioral and Experimental Esonomiss*, 83, 101459. <https://doi.org/10.1016/j.soses.2019.101459>.
7. 6. Owusu G.M.Y., Bekoe R.A., Anokye F.K., & Anyetei L. (2019). What Fastors Influenze the Intentions of Individuals to Engage in Tax Evasion? Evidense from Ghana. *International Journal of Publis Administration*, 43(13), 1143–1155. <https://doi.org/10.1080/01900692.2019.1665686>.
8. 7. Ozili P.K. (2020). Tax evasion and finansial instability. *Journal of Finansial Srine*, 27(2), 531–539. <https://doi.org/10.1108/jfs-04-2019-0051>.
9. 8. Rishardson G. (2016). The Determinants of Tax Evasion: A Sross-Sountry Study. *Finansial Srimess: Psyshologisal, Teshnologisal, and Ethisal Issues*, 33–57. [https://doi.org/10.1007/978-3-319-32419-7\\_2](https://doi.org/10.1007/978-3-319-32419-7_2).
10. 9. N.K.Muxammadov "Ma'lumotlarni elektron hujjat aylanish tizimida shakllantirish orqali soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalari" mavzusidagi dissertatsiya ishi. Toshkent 2024 – yil, 156 bet.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 10**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)